

**E. Umarov***(Toshkent, O'zbekiston)*

## Urxun alifbosining tuzilishi

### Abstrakt

Turkiy tillar boy va qadim tarixga ega. Boshqa tillar kabi ular ham asrlar davomida rivojlandi, boyib bordi. Mazkur maqolada turkiy tillar tarixi, xususan, turkiy tillar taraqqiyotida muhim hodisa sanalgan Urxun alifbosi xususida so'z boradi. Muallif masalaning bir necha dolzarb va bahsli jihatlariga e'tibor qaratib, ularga o'z munosabatini bildiradi. Runik alifbodagi belgilar miqdori va bu belgilarning asosi, runik alifboning yaratilish bosqichlari, unli va undoshlar ifodasi, ayrim undoshlarning ikki xil runa bilan ifodalanishi, ikki harfni ifodalovchi harflar (ligaturalar) va diftonglar kabi masalalar shular jumlasidandir.

Muallif fikricha, Urxun alifbosi fors mixxatlaridan namuna olib tuzilgan, shu bois ushbu alifbo bir qancha murakkabliklarga ega. Ammo alifbo va undagi murakkabliklar birdaniga yuzaga kelgan emas. Urxun alifbosi oxirgi holga kelguncha yetti bosqichni bosib o'tgan va vaqt o'tgan sari takomillashib borgan. Shuningdek, maqolada Urxun harflarining qadimgi turkiy tillardagi unilarga xos uzun-qisqalikni ifodalay olmasligi alifboning kamchiligi sifatida ko'rsatiladi. Maqola so'ngida S. E. Malov, G'. Abdurahmonov va A. Rustamov, A. M. Shcherbak, E. Umarovlar tomonidan tuzilgan (o'qilgan) Urxun alifbolari taqqoslash uchun berilgan.

**Kalit so'zlar:** *turkiy til, Urxun alifbosi, yozuv, turk xoqonligi, tovush, harf, unli, undosh, ideogramma.*

**Muallif haqida:** *Ergash Umarov (1940 - 2017) – filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi.*

**Tavsiya etiladigan havola:** Umarov, Ergash. 2019. "Urxun alifbosining tuzilishi". *Oltin bitiglar* 4: 3—13.

## Kirish

VI – VII asrga kelib turkiy xoqonlik iqtisodiy, harbiy va madaniy jihatdan rivojlanib chet davlatlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnata boshlaydi [Кляшторный 2003, 361]. Bu aloqalar natijasida yozuvga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Xoqonlik oldida tarixiy vazifa – alifbo tuzishdek o‘ta muhim muammo paydo bo‘ladi. Rahbariyat bu ishni o‘z davrining savodxon, bilimdon kishilariga ishonib topshiradi. Alifbo tuzish ishiga xoqonlikda mas’ul lavozimlarda ishlayotgan sug‘dlar ham jalb qilinadi [Кляшторный 2003, 361]. Alifbo tuzuvchilar dunyo xalqlari alifbolarini o‘rganib, o‘z taklif va mulohazalarini tayyorlaydilar. 1991-yilgi lotin yozuviga o‘tish tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, turkiy xoqonlik qoshida alifbo tuzish bo‘yicha o‘z davrining bilimdon kishilaridan iborat nufuzli hay’at bo‘lgan. Hay’at a’zolari qadimgi shumer, finikiy, misr, fors alifbolari bilan tanishib, ularning yutuq va kamchiliklarini o‘rganganlar. Oxiri turli bahs, munozaralardan so‘ng namuna uchun fors mixxatlarida to‘xtaganlar. Fors mixxatlari bundan taxminan ikki yarim, uch ming yil ilgari Eronda tuzilgan bo‘lib, ayrim sharqshunoslarning fikricha, alifbo tuzishda shaxsan Doroning o‘zi qatnashgan. Turkiylar fors mixxatlarining yutuq va kamchiliklarini hisobga olib, turkiy til xususiyatidan kelib chiqib, 38 belgidan iborat runik alifbo tuzishga kirishganlar. Bir narsani aniq aytish mumkin, alifbo tuzish bahs, munozaralarga boy bo‘lgan. Runa yozuvini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, alifbo murakkab tuzilgan. U bir necha bosqich davomida tuzilgan.

## Birinchi bosqich

Dastlabki bosqichda alifbo tuzuvchilar unli tovush uchun runa tanlaganlar<sup>1</sup>. Turkiy unililarga xos uzun-qisqalik alifbo ijodkorlarida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirgan. Gap shundaki, qadimda turkiy unililar bir-biridan uzun-qisqalik bilan farq qilgan. Bu uzun-qisqalik so‘z ma’nosiga ta’sir qilgan. Tarkibida cho‘ziq unli bo‘lgan so‘z oddiy unlili so‘zdan ma’no jihatdan farqlangan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-at turk”idan bir necha misol keltiramiz. Bugungi *to‘r* so‘zi XI asrda *ishbo*: ya’ni cho‘ziq *o’*: bilan *to‘r*:r shaklida talaffuz qilinsa, baliq, qush tutadigan asbob, *ishma:m* bilan, ya’ni *o’* bilan, *to‘r* shaklida esa uyning to‘ri ma’nosini anglatgan [Кашра:пи 2005, 831]. Yana bir misol. Tekis ma’nosidagi *tuz* so‘zida oddiy *u*, namak ma’nosidagi *tu:z* so‘zida *ishbo:li*, ya’ni cho‘ziq *u*: ishlatilgan [Каш-

1 Runa belgilari qaysi alifbo asosida shakllanganligi masalasi hozircha noaniq bo‘lgani uchun bu masalada to‘xtalmadik.

ra:pi 2005, 832]. Ko'rinadiki, qadimda turkiy unlilar bir-biridan uzun-qisqalik bilan farq qilgan. Bu farq so'z ma'nosiga ta'sir qilgan. Bu hol alifbo ijodkorlarini ko'p o'ylantirgan, qiynagan. Bu masalada bahs, munozaralar bo'lgan. Alifbo tuzuvchilar oddiy unli uchun runa topishda deyarli qiynalmaganlar. Ular *a* uchun  $\downarrow$ , *i* ga  $\uparrow$ , *u* ga  $\succ$ , *o'* ga  $\boxplus$  runa olganlar<sup>1</sup>. Ammo cho'ziq *a*; *i*; *u*; *o'* uchun belgi topa olmaganlar. Runa alifbosi ijodkorlari andoza uchun fors mixxatlarini olganliklari sababli, cho'ziq unliga runa topa olmaganlar. Chunki eroniy tillarda so'z boshida cho'ziq unli ishlatilmaydi. Runa alifbosining eng katta kamchiligi ana shunda. Shu sababli runa alifbosi taxminan 100 – 150 yil ishlatilib [Щепѳак 2001, 42], iste'moldan chiqqan. Turfondan topilgan braxmi, manixey, uyg'ur yozuvli yodgorliklarning ko'rsatishicha, turkiylar runa yozuvi davridayoq boshqa yozuvga o'tganlar. Uyg'ur yozuvida cho'ziqlik bir harfni ikki marta yozish bilan ko'rsatilgan. Darvoqe, Bobur ham "Xatti Boburiy"ni tuzishda uyg'ur yozuvining bu afzalligini hisobga olgan.

Xo'sh, cho'ziq unlilar masalasi qanday hal bo'lgan degan savol tug'iladi. Urxun yodgorliklaridagi so'zlar imlosini o'rganish shuni ko'rsatadiki, cho'ziqlik unli runaga bo'g'in yoki bo'g'inga bo'g'in qo'shish orqali ko'rsatilgan. Bugungi chiroyli, suluv so'zi kadimda cho'ziq *i*: bilan *si:lik* shaklida talaffuz qilingan. Ko:ul ti:gin matnida bu cho'ziqlik  $\uparrow$  -i runasiga  $\Upsilon$  -il bo'g'inini qo'shish orqali ko'rsatilgan:

$\uparrow \uparrow \Upsilon \uparrow \uparrow$  (KTu 7)<sup>2</sup> *si:lik* [Малов 1951] (chiroyli)

$\uparrow$  — s;  $\uparrow$  — i;  $\Upsilon$  — il;  $\uparrow$  — ik

Bugungi *boy* so'zi VI – VII asrlarda cho'ziq *a*: bilan *ba:y* shaklida talaffuz qilingan. Bu so'z Ko:ul ti:gin yodgorligida *ba* bo'g'iniga *ay* bo'g'inini qo'shish orqali ko'rsatilgan:

$D \cup$  (KTk 10) *ba:y* [Малов 1951] (boy)

$\cup$  – ba;  $D$  – ay

*U*: va *o'*: cho'ziq unlilari ham shu usulda ko'rsatilgan. Cho'ziq unli uchun maxsus runa bo'lmaganligi uchun ayrim so'zlar boshida *u* yozilmagan. Cho'ziq *a*: uchun maxsus runa yo'qligi sababli *a:ltu:n* so'zi cho'ziq *a*: siz yozilgan:

$\cup \succ \boxplus \downarrow$  (KTk 5) [Малов 1951] *a:ltu:n*

1 Ushbu maqolada Ko:ul ti:gin va Tu:i:yoqoq yodgorliklaridagi unlilar bo'yicha fikr yuritdik.

2 U – ulug' bitik; k – kichik bitik. Qavs ichidagi raqam yodgorlik satrini bildiradi.

[a:]; ↓ - l: ⋈ - tu; > - u; ∩ - n

Xullas, runa alifbosida oddiy unlilar uchun runa bor, cho'ziq unlilar uchun runa yo'q.

### **Ikkinchi bosqich**

Alifbo tuzuvchilar bu bosqichda undoshlar uchun o'n yetti runa yaratganlar: ∩ - b, ⋈ - d, D - y, ↓ - l, Ɱ - n, ʝ - r, ʣ - s, ⋈ - t, ʃ - k, € - g, ʣ' - g', ⋈ - m, Ɱ - z, 1 - p, < - sh, ʃ - q.

Turkiy tilga xos cho'ziqlikni ifodalash uchun bu runalar fors mixxatlariga o'xshab a, i, u, o' unlilari bilan ishlatilib, turli bo'g'inlar hosil qilgan.

Masalan, ʃ - k runasi tosh bitiklarda *ak, ka, ik, ki, uk, ku* kabi turli bo'g'inni anglatgan.

ʃ - ka:

↓ ʃ Ɱ (Tu 39) [Малов 1951] nika: (nega)

Ɱ - ni; ʃ - ka; ↓ - a

ʃ - ki:

↑ ʃ (Tu 16) [Малов 1951] i:ki:

[i:]; ʃ - ki; ↑ - i

↑ ʃ ʣ ʃ (Tu 8) [Малов 1951] ki:lti (keldi)

ʃ - ki; ʣ - il; ʃ - t; ↑ - i

### **Uchinchi bosqich**

Alifbo ijodkorlari bu bosqichda o'n yetti undoshdan sakkiztasiga muqobil ravishda yangi runa yaratganlar: ⋈ - b, X - d, ʣ - y, ↓ - l, ∩ - n, ʣ' - r, 1 - s, ʃ - t.

Bu runalar sof undoshni ifodalagan. Misollar:

⋈-b:

Ɱ ↑ ⋈ (Tu 16) [Малов 1951] bi:z

⋈ - b; ↑ - i; Ɱ - iz

Ɱ ↑ 1 € ʣ ↑ ⋈ T (KTu 5) [Малов 1951] bi:ligsi:z

⋈ - b; ↑ - i; ʣ - il; € - ig; 1 - s; ↑ - i; Ɱ - iz

ʃ - t:

⋈ X ʃ (Tu 25) [Малов 1951] tdim (dedim)

h - t; X - d; ✱ - im

✱Xh l (Tu 25) [Малов 1951] sukdim (yordim)

l - s; h - uk; X - d; ✱ - im

q - y:

l ✱Y⊙h q (KTu 2) [Малов 1951] yo'kuntrmis

q - y; h - o'k; ⊙ - unt; Y - r; ✱ - mi; l - s

l h q (Tu 4) [Малов 1951] yti (yetgi)

q - y; h - t; l - i

↓ - l:

Y↓⊗ (Tu 4) [Малов 1951] atlig'

⊗ - at; ↓ - l; Y - ig'

⌋ - n:

⌋Y'Y⊙⊗ (Tu 8) [Малов 1951] tabi:sg'an (kuyon)

⊗ - ta; ⌋ - bi; Y' - is; Y' - ga; ⌋ - n

⌋Y'h (KTu 5) [Малов 1951] qag'an

h - qa; Y' - g'a; ⌋ - n

Y' - r:

Y'✱h (KTK 4) [Малов 1951] timr (temir)

h - t; ✱ - im; Y' - r

l ✱Y (Tu 14) [Малов 1951] i:rmis (emish)

[i:]; Y' - r; ✱ - mi; l - s

l - s:

h l l'εY l'⊗ (KTu 5) [Малов 1951] bi:ligsi:z

⊗ - b; l' - i; Y - il; ε - ig; l - s; l' - i; h - iz

l'Y l l' (KTu7) [Малов 1951] sili:k

l - s; l' - i; Y - li; l' - ik

Ko'rinadiki, Urxun yozuvida *b, d, y, l, n, r, s, t* undoshlari ikki xil runa bilan ko'rsatilgan: *b* (⊗, ⌋), *d* (X, ✱), *y* (D, q), *l* (↓, Y) *n* (⌋, h), *r* (h, Y'), *s* (Y, l), *t* (⊗, h). Bu qo'sh undoshlar alifboni birmuncha murakkablashtirgan. Shu sababli runa yozuvini qanday o'qish lozimligi 120 yildan beri bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda bu qo'sh undoshlar  $b^1$ ,  $b^2$ ,  $d^1$ ,  $d^2$ ,  $y^1$ ,  $y^2$ ;  $l^1$ ,  $l^2$ ,  $n^1$ ,  $n^2$ ,  $r^1$ ,  $r^2$ ,  $s^1$ ,  $s^2$ ,  $t^1$ ,  $t^2$  shaklida yozilib kelinmoqdaki, ularni bunday raqamlab yozish hech qanday ilmiy asosga ega emas. Ayrim adabiyotlarda ular **b - qattiq**, **b - yumshoq** deb izohlanmoqdaki, bu ham turkiy til tabiatiga zid. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, turkiylar qo'sh undosh usulini fors mixxatlaridan olganlar. Mixxatlarda ham bir belgi sof undoshni, ikkinchisi bo'g'inni anglatgan. Turkiylar ham bir runani sof undosh, ikkinchisini bo'g'in vazifasida ishlatganlar. Agar buni  $b$  qo'sh undoshi misolida ko'radigan bo'lsak,  $\otimes$  runasi sof  $b$  ni,  $\cup$  runasi  $ab$ ,  $ba$ ,  $bu$ ,  $bi$  bo'g'inlarini anglatgan. Ayrim misollar.

$\otimes$  -  $b$ :

$\text{ᲗᲗ}$  (Tu 17) [Малов 1951]  $ban$

$\otimes$  -  $b$ ;  $\text{Თ}$  -  $an$

$\cup$  -  $ab$ :

$\text{ᲗᲗ}$  (KTk 5) [Малов 1951]  $sa:bi$  (so'zi)

$\cup$  -  $sa$ ;  $\cup$  -  $ab$ ;  $\text{Თ}$  -  $i$

$\cup$  -  $bu$ :

$\text{ᲗᲗ}$  (Tu 8) [Малов 1951]  $bu:g'uzi$ : (bo'g'zi)

$\cup$  -  $bu$ ;  $\text{Თ}$  -  $u$ ;  $\text{Თ}$  -  $gu$ ;  $\text{Თ}$  -  $zi$ ;  $\text{Თ}$  -  $i$

$\cup$   $bi$ :

$\text{ᲗᲗ}$  (Tu 16) [Малов 1951]  $bi:ng$

$\cup$  -  $bi$ ;  $\text{Თ}$  -  $i$ ;  $\text{Თ}$  -  $ing$

### To'rtinchi bosqich

Bu bosqichda alifbo ijodkorlari olti ( $\mathbb{M}$ ,  $\mathbb{B}$ ,  $\mathbb{B}$ ,  $\mathbb{B}$ ,  $\mathbb{B}$ ) ligatura (bir belgi bilan ikki harfni ifodalash) yaratganlar. *Bo'lti*, *o'ltirmak*, *o'lti* kabi so'zlar tarkibida keluvchi *lt* uchun  $\mathbb{M}$  runasi yaratilgan.

$\mathbb{M}$  -  $lt$ :

$\text{ᲗᲗ}$  (KTk 10) [Малов 1951]  $qi:ltim$

$\mathbb{M}$  -  $qi$ ;  $\text{Თ}$  —  $i$ ;  $\mathbb{M}$  -  $lt$ ;  $\text{Თ}$  -  $im$

$\text{ᲗᲗ}$  (Tu 2) [Малов 1951]  $adrilti$  (ayrildi)

$\text{Თ}$  -  $ad$ ;  $\mathbb{M}$  -  $ri$ ;  $\mathbb{M}$  -  $lt$ ;  $\text{Თ}$  -  $i$

Bu bosqichda, shuningdek, *o'k* va *ko'* bo'g'ini uchun  $\mathbb{B}$ , *uk* va *ku* uchun  $\mathbb{B}$  ligatura yaratilgan:

$\mathbb{B}$  -  $o'k$ :

$\text{ᲗᲗ}$  (KTu 3) [Малов 1951]  $to'ro'k$

$\mathbb{B}$  -  $t$ ;  $\mathbb{B}$  -  $o'$ ;  $\mathbb{B}$  -  $r$ ;  $\mathbb{B}$  -  $o'k$

Б - uk:

↑ Һ Б Һ (Tu 52) [Малов 1951] tukti  
Һ - t; Б - uk; Һ - t; ↑ - i

ž - nch, ʃ - ng ligaturalari unli bilan ishlatilgan.

ž - anch:

↑ ž ž ʃ (KTu 49) [Малов 1951] sa:nchdi:  
ʃ - sa; ž - anch; ž - di; ↑ - i

ʃ - ang:

↑ ʃ ʃ ʃ (KTk 1) [Малов 1951] tangri  
Һ - t; ʃ - ang; ʃ - r; ↑ - i

ʃ - o'ng:

ʃ ʃ X | ʃ ʃ | (Tu 16) [Малов 1951] so':ngsdimiz  
(urushdimiz)  
| - s; ʃ - o'; ʃ - o'ng; | - s; X - d; ʃ - im; ʃ - iz

### Beshinchi bosqich

Bu bosqichda alifbo tuzuvchilar ↓ ideogrammasini yaratganlar. Bu ideogramma o'q va qo' bo'g'inlarini ifodalaydi.

↓ D (KTk 10) [Малов 1951] yo':q  
D - yo'; ↓ - o'k

1 > ↓ (KTk 2) [Малов 1951] ko'u:p (ko'p)  
↓ - qo'; > - u; 1 - up

### Oltinchi bosqich

Bu bosqichda turkiy tillardagi i:y diftongi uchun shoxsimon ʃ runa yaratilgan. Bu runa quyidagi so'zlar tarkibida uchraydi:

ʃ ʃ ʃ < (Tu 12) [Малов 1951] qi:tai:y – etnonim  
ʃ > ↓ (KTu 54) [Малов 1951] qo'ui:y – qo'y  
↓ ↓ ʃ > ʃ (Tu 1) [Малов 1951] Tu:i:yo'qo'q - ism

Bu diftong hozir tatar tilida saqlanib qolgan: *si:yla - mehmon qil, yari:y - yaxshi, ji:y - yig'* [Татарско-русский словарь 1966, 815].

### Yettinchi bosqich

Runa alifbosi ijodkorlari *qi* va *iq* bo'g'inlari uchun < runasini

yaratganlar. Quyidagi soʻzlar ushbu runa bilan yozilgan.

𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇 (KTu 4) [Малов 1951] qi:riqi:z

𐰇 - qi; 𐰇 - i; 𐰇 - ri; 𐰇 - qi; 𐰇 - iz

𐰇𐰇𐰇𐰇 (KTu 15) [Малов 1951] qi:ri:q

𐰇 - qi; 𐰇 - i; 𐰇 - ri; 𐰇 - iq

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, alifbo tuzuvchilar fors mixxatlaridan andoza olganliklari uchun alifboni birmuncha murakkablashtirib yuborganlar. Shu sababli boʻlsa kerak ayrim olimlar runa yozuvini taynopsis — maxfiy yozuv, rebussimon yozuv deb ataganlar [Щепѳак 2001, 39-41]. Aslida, alifboni birmuncha ixchamlashtirish mumkin edi. Yettinchi va beshinchi bosqichda yaratilgan 𐰇 - *iq* va *qi*, 𐰇 - *oʻq* va *soʻ* runalari vazifasini boshqa runalar kabi 𐰇 - *q* runasiga yuklatish mumkin edi. Xuddi shuningdek 𐰇 - *ku*, *uk*, 𐰇 - *oʻk*, *ku* uchun ikkita runa yaratmasdan ularning vazifasini 𐰇 - *k* runasiga yuklash mumkin edi. Shunda toʻrtta runa qisqarib, alifbo birmuncha soddalashtirish mumkin boʻlar edi. Bu kamchilikni turkshunoslik fanining oʻsha davridagi saviyasi bilan bogʻliq deb izohlamoq kerak.

Bizningcha, runa alifbosi yuqorida koʻrsatilgan bir necha bosqichda tuzilgan. Agar alifbo tuzuvchilar oʻzaro kelishganlarida edi, bu bosqichlarni soddalashtirish mumkin boʻlardi.

Xullas, alifbo tuzuvchilar har bir runaning qanday harf yoki boʻgʻin ifodalashi haqida bir fikrga kelishgach, ularni katta jadvalga joylashtirganlar. Yozuvchilar, olimlar, oʻqituvchilar ana shu jadvalga qarab matn tuzganlar. Birinchi turkiy yozuvchi Yu:lugʻ ti:gin Urxun yodgorligini ana shu jadvalga qarab yozgan.

Maqola oxirida muqoyasa uchun avval tuzilgan runa alifbolaridan namunalar keltiramiz.



ʃ	a, e	l	s <sup>2</sup>
ʃ	i, i	δ	t <sup>1</sup>
>	o, u	h	t <sup>2</sup>
ʃ	ö, ü	ð	j <sup>1</sup>
ʃ	b <sup>1</sup>	q	j <sup>2</sup>
ʃ ʃ	b <sup>2</sup>	λ	č
ʃ	d <sup>1</sup>	ʃ	m
χ	d <sup>2</sup>	ʃ	ŋ
ʃ	γ	ʃ	ʃ
ʃ	g	ʃ	p
ʃ ʃ	q	ʃ	š
ʃ	k	ʃ	z
ʃ	l <sup>1</sup>	ʃ	oq, uq, qo, qu
ʃ	l <sup>2</sup>	ʃ ʃ	ök, ük, kö, kü
>	n <sup>1</sup>	ʃ	iq, qi
ʃ	n <sup>2</sup>	ʃ	rt (?)
ʃ	r <sup>1</sup>	ʃ	lt
ʃ	r <sup>2</sup>	ʃ	nč
ʃ	s <sup>1</sup>	ʃ	nt

1-rasm. A. M. Sherbakning «Тюркская руника» (СПб – 2001) kitobida keltirilgn runa alifbosi.

	-	а:	20	h	т
	-	и:	21	4	ки, ик
	-	у:	22	l	ўк, кў
	-	ў:	23	7	ки, ук, ик, ўк, кў
1	Г	а	24	€	га, ги, иг, уг
2	Г	и	25	В	ку, ук
3	7	у	26	h	ўк, кў
4	Н	ў	27	Ұ	ға, ағ, иг
5	Ј	аб, ба, би, бу, уб	28	»	ма, им, ми
6	қ	б	29	Ч	аз, из, уз, зи
7	Ж	да, ад, ди, ду, уд	30	Э	и: й
8	Х	д	31	Ч	анг, инг, ўнг, унг
9	Д	йа, ай, йу	32	О	ант, унт, нта
10	9	й	33	М	лт
11	У	ла, ли, ил, ўл, лў, ал, лу, ул	34	З	анч, унч, инч
12	Ј	л	35	1	па, ип, пи, уп
13	М	ан, ин, ун, ўн, ни, на	36	Л	ча, ач, ўч, чи
14	У	н	37	Ұ	аш, иш, ша, уш, ўш
15	Ч	ар, ра, ир, ри, ру, ур, рў	38	h	қа, ки, ақ, қу
16	Ұ	р			
17	Ұ	са, си, ис, су, ус, ас			
18	l	с			
19	Ұ	та, ат, ти, ит, ту, ут			

2-rasm. E. Umarovning *“Urxun yozuvi”* (Toshkent, 2013) kitobidan keltirilgan runa alifbosi.

### Adabiyotlar

- Кашгари:, Махмуд. 2005. *Ди:ва:н луга:т ат-турк*. Перевод, предисловие и комментарии Аузовой З. А. М. Алматы.
- Кляшторный, С. Г. 2003. *История Центральной Азии и памятники рунического письма*. Санкт-Петербург.
- Малов, С. Е. 1951. *Памятники древнетюркской письменности*. Москва: Ленинград.
- Татарско-русский словарь. 1966. Москва.
- Щербак А.М. 2001. *Тюркская руника*. Санкт-Петербург.

E. Umarov

(Tashkent, Uzbekistan)

## The structure of the urkhun alphabet

### Abstract

The Turkic languages have a rich ancient history. Like other languages, they have evolved and enriched over a few centuries. It is held a conversation about the history of Turkic languages, in particular the Urkhun alphabet, which is an important event in the development of Turkic languages. The author focuses on several relevant and controversial aspects of the issue and suggests his ideas to them. These are the issues such as the number of characters in the runic alphabet and the basis of these characters, the stages of creation of the runic alphabet, the expression of the vowels and consonants, expression of some consonants with two different forms, ligatures (expressing two-letter letters), and diphthongs.

According to the author, the Urkhun alphabet was originated from Persian cuneiform, so the alphabet has several complexities. However, the alphabet and its complexity did not occur at once. The Urkhun alphabet has passed through seven stages up to its final condition and it has been becoming in progress from century to century. And also, it is demonstrated as a disadvantage of the alphabet that cannot be expressed a long-short features of the vowels in ancient Turkic languages. At the bottom of the article, the Urkhun alphabets are given for comparison which were read by S. E. Malov, G. Abdurahmonov, A. Rustamov, A. M. Shcherbak, E. Umarov.

**Keywords:** *Turkic language, the Urkhun alphabet, inscription, khanate of Turk, sound, letter, vowel, consonant, ideogramme.*

**About the author:** *Ergash Umarov (1940 - 2017) – Doctor of Sciences in Phlology, Senior Research Fellow of the Institute of Language and Literature Named after Alisher Navoi, the Academy of the Republic of Uzbekistan.*

**Recommended citation:** Umarov, Ergash. 2019. "Urxun alifbosining tuzilishi". *Oltin bitiglar* 4: 3 — 13.

### References

- Kashgari:, Maxmu:d. 2005. *Di:va:n luga:t at-turk*. Perevod, predislovie i kommentarii Auzzovoy Z. A. M. Almati.
- Klyashtorniy, S. G. 2003. *Istoriya sentralnoy Azii i pamyatniki runicheskogo pisma*. Sankt-Peterburg.
- Malov, S. Y. 1951. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. Moskva: Leningrad.
- Tatarsko-russkiy slovar*. 1966. Moskva.
- Sherbak, A. M. 2001. *Tyurkskaya runika*. Sankt-Peterburg.